



"Yemelyanovo aeroporti" MCHJ "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasini 2019-yildagi faoliyat natijalari bo'yicha eng jadal rivojlanayotgan xorijiy aviatashuvchi deb e'tirof etdi.

"Yemelyanovo" xalqaro aeroportning diplom va esdalik nishoni har yili o'tkaziladigan xalqaro aeroportni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun aviatashuvchilarni taqdirlash marosimida "Uzbekistan Airways"ning Krasnoyarskdagi vakolatxonasiga topshirildi.

Bugungi kunda "Uzbekistan Airways" Toshkentdan Krasnoyarsk aeroportiga haftasiga 1 marotaba muntazam qatnovlarni amalga oshirmoqda. 2019-yil oxirida aviakompaniya "Yemelyanovo" aeroportida 15,289 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatdi, bu 2018-yildagi ko'rsatkichdan 6 foizga ko'pdir.



[Download PDF](#)